

## Novatorlikning ta'limda namoyon bo'lishi

Komila Dekanovna Alimova

komiladekanovna@gmail.com

Toshkent davlat stomatologiya instituti

**Annotatsiya:** Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari - ta'limda an'anaviylik va novatorlikning namoyon bo'lishi, innovatsion muhit sharoitida pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolar, «metodika» va «texnologiya» tushunchalari tavsifi hamda qiyosiy tahlili, oliy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda an'anaviy va innovatsion yondashuvning zaruriyati, «didaktik ta'minot» va «metodik ta'minot» tushunchalari mohiyati kabi masalalarni yoritib berishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Qonun, shaxs, jamiyat, innovatsiya, metod, novatorlik, texnologiya, metodika.

## Innovation in education

Komila Dekanovna Alimova

komiladekanovna@gmail.com

Tashkent State Institute of Dentistry

**Abstract:** Some current problems of pedagogy - the manifestation of tradition and innovation in education, the problems of pedagogical activity in an innovative environment, the description and comparative analysis of the concepts of "methodology" and "technology", advanced pedagogy in higher education the need for a traditional and innovative approach to the use of technology, the essence of the concepts of "didactic support" and "methodological support".

**Keywords:** Law, person, society, innovation, method, innovation, technology, methodology.

Pedagogika fani hozirgi davrda har qachongidan ham muhim rivojlanish davriga kirdi. Chunki mustaqil O'zbekiston Respublikasining kelajagi unda kamol topayotgan yosh avlod tarbiyasiga bog'liq. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining I-chaqiriq 2-sessiyasida "O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari" haqida qilgan ma'ruzasida pedagogic tadqiqotlar oldiga muhim talablar qo'ydi.

“Zamonaviy yuksak texnologiyalarda ishlay oladigan, bozor Qonunlariga mos yangicha fikrlay biladigan mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun vazifasi” ekanligi va buning uchun “Maktab-o’rta-oliy ta’lim. Ilmiy-tadqiqot institutlari shaklidagi ilmiy-ma’rifiy komplekslarni vujudga keltirish lozimligini ta’kidladi.”

Zamonaviy jamiyat o’zining tez va chuqur o’zgaruvchan tavsifiga ega bo’lib, bunday o’zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko’zga yaqqol tashlanmoqda. Ta’lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo’layotgan barcha o’zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o’z tuzilishi va faoliyat mazmunini o’zgartirishi zarur. Bugungi kunda ta’limning jamiyat rivojlanish sur’atlaridan ortda qolayotganligi, ta’lim jarayonida qo’llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to’liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e’tirof etilmoqda. Chunki ta’lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o’zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o’z ta’sirini o’tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta’lim tizimi o’rtasidagi munosabat murakkab ko’rinishga ega bo’lib, yuqori darajadagi jo’shqinlik bilan farqlanadi. Ta’lim barcha faol va sust o’zgarishlar ta’sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo’layotgan voqealarga esa o’z ta’sirini o’tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta’limdagi o’zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o’ziga xos rivojlanish shartidir

Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko’plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fantexnikaning yangi soha va bo’limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta’minlayotgan bo’lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko’lamda qo’llash jahon taraqqiyotining global tendentsiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko’lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo ko’plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta’lim jarayonlariga o’qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo’yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo’lmaydi. Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir o’qituvchining o’z faniga va barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o’rgana borib, ularni o’z mehnat faoliyatida izchil qo’llay bilish mahoratiga ega bo’lishi bugungi kunning muhim talabidir

Ma’lumki, bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko’p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab

etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi - pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Novatorlik va yangilik - madaniyat, ta'lim va umumiylikda jamiyat rivojlanishining ikki jihati. An'analar va yangiliklarning xilma-xil munosabatlariga tayanib, madaniyatshunoslar jamiyatni an'anaviy va zamonaviyga ajratib ko'rsatishadi. An'anaviy jamiyatda an'ana novatorlik ustidan hukmronlik qiladi. Zamonaviy jamiyatlarda esa, novatorlik bazali qadriyat sanaladi.

Hozirgi davrda pedagogikaning dolzarb muammolari.

1. Tarbiyaviy jarayonning mohiyati va qonuniyatlari.
2. Shaxs axloqiy irodaviy sifatlarini shakllantirishning yo'llari, xususan ongli, mehnatga munosabat, vatanparvarlik, javobgarlik, burchni sevish, pok vijdon kabi milliy hamda umuminsoniy sifatlarni shakllantirish.
3. Shaxsni shakllantirishning umumiy asoslari ta'limni mehnat amaliyoti bilan bog'lash, aqliy, jismoniy va mehnat, estetik va mafkuraviy, ijtimoiy va individual sifatlarni shakllantirish.
4. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash, tarbiya va qayta tayyorlash.
5. O'quvchilarni tug'ma qobiliyat va mahoratlarini aniqlash va rivojlantirish, ta'limga individual yondashish.
6. O'qituvchi ta'sii xulqidagi etika va estetika.
7. Talabalar jamoasini shakllantirishning samarali yo'llari
8. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish ularning aqliy faolligini rivojlantirish.

Innovatsion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.Sharq 2008.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997.
4. Begimqulov U,Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: PFD...diss. -T., 2007.-3b.
5. Komila Dekanovna Alimova. Til bilish dunyoni bilishdir. SCIENCE AND EDUCATION. SCIENTIFIC JOURNAL ISSN 2181-0842. VOLUME 3, ISSUE 4 734 -737 betlar.

6. Komila Dekanovna Alimova. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH. "INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/5" Page No.: 57-61